

O‘TKIR HOSHIMOV HIKOYALARIDA MILLIY KOLORITNING MILLIY PORTRETDAGI IFODASI

Xayriyeva Nargiza Ixtiyor qizi

Buxoro davlat universiteti

2-bosqich magistranti

Annotatsiya: maqolada O‘tkir Hoshimov hikolarida o‘zbekona ruh, obrazlarning o‘ziga xos tashqi ko‘rinishi, milliylik kasb etgan xatti-harakatlar vositasida milliy koloritning milliy portretdagi tajassumi tahlil va talqin qilindi.

Kalit so‘zlar: hikoya, kolorit, portret, milliy portret, personaj, obraz, xarakter, tip.

KIRISH. XX asr o‘zbek adabiyotida dastlab zamonaviy hikoyalar yangi janr sifatida jadidlar ijodida ko‘zga tashlangan bo‘lsa, keyinchalik Abdulla Qahhor, Said Ahmad, Shukur Xolmirzayev, O‘tkir Hoshimov qalamida turfa mavzu va g‘oyalar, yangicha qarashlar bilan boyib, qayta dunyoga keldi. Zero, XX asr hikoyachiligini ushbu zabardast nosirlarsiz tasavvur qila olmaymiz. Chunonchi, tahlil uchun olingan O‘tkir Hoshimov hikoyalarida ham shu kabi turfalik va o‘ziga xosliklar mavjudki, misollar vositasida milliylikning portretdagi tajassumini tadqiq etamiz.

ASOSIY QISM

Yozuvchi ijodidagi xilma-xillik, janrlar turfaligi va shunga ko‘ra mavzu hamda g‘oyalarning unumdorligi haqida so‘z borar ekan, quyida tahlili amalga oshirilayotgan “Nega? Nega?”, “Xotam-xasisning xazinasini”, “Umr savdosi”, “Quyosh tarozisi”, “Oq bulut, oppoq bulut”, “Jintepa” kabi hikoyalar urush (II jahon urushi hamda afg‘on muhorabasi)ning insoniyat boshiga solgan ko‘rguliklari, front va frontorti mashaqqatli hayoti va undan keyingi sinovli yillar, umuminsoniy qadriyatlar, shuningdek, katta-kichik dolzarb muammolar haqida yoki maishiy-ijtimoiy masalalar to‘g‘risida bayon qiladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Badiiy adabiyotda personaj tashqi qiyofasining tavsifi, tasviri, badiiy obraz yaratish vositalaridan biri bo'lgan portret xarakteri asar janriga hamda yozuvchining ijodiy metodi va individual uslubi xususiyatlariga bog'liq bo'ladi. Odatda, portret personaj xarakterining yozuvchi eng muhim deb bilgan jihatlarini tilga oladi. Adib hikoyalarida esa portretning milliy ko'rinishi asosiy ifoda yo'siniga aylanadi, ya'ni personaj xarakteri, ichkli olami, maqsad-muddaosi tashqi ko'rinish va harakatlari orqali ko'proq urg'u berilgan holda, shuningdek, milliy urf-odat, an'ana hamda qadriyatlar hamohangligida qahramonlar portreti vositasida ochib berilgan:

“Nega? Nega?” hikoyasi. “... Hamidulla otasining cho'loq oyog'ini ko'p ko'rgan. Chap oyog'ini... Tizzadan yuqorisi saqlanib qolgan oyoq allaqanday ingichka tortib ketgan. Uchi to'mtoq, ko'kimtir qizg'ish rangda. Shimining pochasini qayirib, oqarib ketgasn eski qayishga qistiqib oladi-da, hakkalab borib devorga qo'yilgan qo'ltiqtayog'iga yopishadi... “Kerak bo'lsa Moskvagacha boraman” – deydi allakimga dag'dag'a qilib. – Ko'kcha mozorida otam yotibdi, onam yotibdi! Ota-buvamdan qolgan uyni buzadiganning boshi o'nta... O'ligim shu yerdan chiqadi... – Ikkala hassatayog'ini yerga baravar uradi, – shu yerdan” [1.60].

Butun dunyoni larzaga solgan II jahon urushi Erkin Vohidovning “Nido” dostonidagi Rustamning akasi, Said Ahmadning “Ufq”idagi Ikromjon, “Nazar Eshonqulning “Urush odamlari”dagi Nurmat polvon singari Hamidullaning ham tanasi va ruhini xasta qilgan. Bu ham yetmaganday otameros uyini buzmoqchi bo'lishadi. O'zbeklar uchun uy – faqat moddiyatdan iborat turar-joy maskani emas, bu – ajdodlar ruhi va xotirasi saqlangan, ularga hurmat bajo keltiriladigan muqaddas rishtalar bog'langan va davom etadigan mo'tabar go'sha. Milliy kolorit aks etgan yuqoridagi jumla ota-bobolar merosi, tiniq xotirasi avlodlar uchun farz ham qarz ekanligini uqtirgandek go'yo.

Hikoya bosh qahramoni Hamidulla diyonat va insofni hayotining mazmuni sanaydigan, oilasiga sodiq, mard inson. Ikki qiz va bir o'g'lini jonidan

ortiq suyuqchi ota, mehribon umr yo‘ldosh. Ammo bolalari hali kichikligida, xizmat vazifasini bajarish vaqtida (o‘g‘li Raxmatillanining tug‘ilgan kuni sabab uyiga oshiqayotganda – N.X.) to‘satdan mashinasida odam urib yuboradi va ikki yilga “axloq tuzatish”ga hukm qilinadi. Oradan yillar o‘tib o‘g‘li ikki yillik yigitlik burchini Afg‘onistonda o‘tashga to‘g‘ri keladi. Ammo Hamidulla xotiniga Rahmatillani Termizda deb aldaydi. Ayolini o‘g‘lidan xavotir olib qiynalishini xohlamaydi. Hamidulla ajdodlar yodi va merosini ulug‘lovchi, jamiyatdagi yengil-yelpi turmush tarziga qarshi, o‘z-o‘zini doimiy tarzda taftish qilib boruvchi “noyob” obraz. U o‘z manfaatidan ko‘ra o‘zgalarni ko‘proq o‘ylaydigan inson. Masalan, ikki yilga qamalgan payt ketish oldidan ayolini yosh ekanligi, agar istasa, yo‘li ochiqqligini aytadi. Ayoli “undan ko‘ra o‘ldirib keta qoling”, deya o‘zbek ayoliga xos nomus va hayo bilan javob qaytaradi. Balki g‘arbda, Yevropa mamlakatlariidan birida shunday hodisa ro‘y bersa, ayol eri aytmasa ham, uni kutmay hayotini boshqasi bilan davom ettirar, ammo o‘zbek ayollarining, ayniqsa bitta bo‘lsa ham bolasi bo‘lgan o‘zbek onalarining eriga va farzandiga sadoqatini oddiy so‘zda ifodalab bo‘lmaydi.

Hamidulla ko‘cha-ko‘yda iboni yig‘ishtirib qo‘yib yuradigan ayollarni, ularning nomunosib harakatlarini ko‘rib o‘z ayolining qanchalar hokisorligini, o‘zbek ayoli, o‘zbek onasining nihoyatda soddaligini ich-ichidan tan oladi. Avtobusdagi tiqilinchda o‘ziga “amaki” deb murojaat qilgan bo‘yangan yoshi katta ayolga kinoya bilan javob qaytarishi atrofdagi voqealarga befarq qaray olmaydigan kishi ekanligidan dalolatdir. Chunonchi, “ – O‘lsin-ey! Muncha imillaydi bu! Aksiga oladi o‘zi. Soatingiz necha bo‘ldi, amaki?

“Amaki-ya!O‘zining yuzi tegirmonchining mahsisiga o‘xshaydi-ku, amaki deydi. Upaniyam bearmon chaplabdimi? Qarilikni bo‘yniga olsa o‘ladi bu xotinlar?! Qimmatbaho palto kiyib, gul ko‘tarib yurgandan ko‘ra taksiga minsang joniqib kutayotganingni oldiga o‘n minutda borasan. Ana ko‘cha to‘la taksi” .

– Soatim yo‘q xola! Manda soat nima qilsin. Po‘ristoy odam bo‘lsam”[1. 61] – deya “amaki”degan opasi tengi ayolga “xola” deb “chiroyli” javob qaytaradi.

“Voy-bo‘-o‘! Atirga cho‘milganmi bu xotin, nima balo, dimog‘ni yoradi-ya! Bola-chaqadan orttirib pardozi ko‘ngliga siqqani... E, bizni xotinlarni boshidan suv o‘girib ichsang arziydi. Uyim-joyim deydi, bola-chaqam deydi...” [1. 62].

Shu o‘rinda o‘zbek ayollarini boshqalar bilan qiyoslar ekan, o‘zi o‘jar, hech narsadan tap tortmaydigan erkak bo‘lsa-da, haqiqatni ich-ichidan tan oladi. Bu xususiyat o‘zbek erkaklariga xos mardlikdan, behayolik va yengiltakni ko‘tara olmaydigan nomusli ekanligidan dalolatdir.

“... O‘zingning xotining boshqachada. Yigirma bir yil turmush qilib, bir marta labiga bo‘yoq surmadi-ya. Ikki gapning birida “Rahmatim kelsa, hafta o‘tmay to‘y qilaman”, deydi. Ko‘rpa-ko‘rpachalar tayyor, kelin sarpolar tappa-taxt. Shu kunlarga yetkazsin” [1. 62] deguvchi o‘zbek ayollari, o‘zi kiymay kiydirib, o‘zi yemay yediradigan, topgan-tutganini to‘yga, bolalariga sarf qiladigan onalar, orzu-havas deya butun umr beli og‘rib topgan bir umrlik boyligini bir kunda sarflovchi otalar, mehmonini to‘rga chiqarib, o‘zi poygakda yotuvchi mehmondo‘st, elsevar, to‘yxor xalq yana qayda bor?!

Afg‘onistonda o‘tgan ikki yillik xizmat tugashiga bir oy qolganida Raxmatilla og‘ir ahvolda yurtiga qaytariladi. Bu xizmat shunchaki harbiy mashg‘ulot yoki o‘yin emas, afg‘on maydonidagi urush natijasi edi. “To‘shaklar... Oq choyshablar... Kulrang adyollar. Bir-biriga o‘xshash qiyofalar... Hammasi yosh, hammasi rangpar... Dori isi...” [1. 64].

Rahmatillani bir ahvolda ko‘rgan otasi Hamidulla ichdan zil ketdi. “Nahot! Nahot shu o‘g‘li bo‘lsa! Aeroportda xayrlashayotganida “mendan xavotir olmanglar” degan, avval onasini, keyin uni quchoqlagan, quchoqlaganida belini qisirlatib yuborgan... Har safar “Termizdan sog‘inchli salom” deb xat boshlagan, “opamga ayting, xavotir olmasinlar” degan, uch kun ilgari “uzog‘i bilan bir oydan keyin boraman” deb xati kelgan... Qani, qani o‘sha o‘g‘li? O‘n yasharligida “onangni ehtiyot qil” deganida yig‘lamay yerga qarab turgan, xizmatga ketish oldidan devdek yigit bo‘lib yetilgan... Tamom bo‘pti-ku! Rangi dokadek

oppoq... Soqol-mo'ylovi o'sgan... Qiziq, nega soqol-mo'ylovi muncha dag'al?
Nega oqargan? Yo xudo! O'g'li o'zidan qarib ketibdimi? [1. 65]

Ajab, o'g'lining qo'llari muncha ojiz? Nega qaltiraydi?

Rahmatillaning yuziga qon yugurgandek bo'ldi. Hatto... Hatto kulimsiradi ham. Otasi buni ko'rdi. Aniq ko'rdi!

... U jinni bo'lib qolganga o'xshardi (balki chindan ham esdan og'gandir).
Shitob bilan adyolni yulqib chetga uloqtirdi.

–Tur bolam! Tur o'rningdan! Ketamiz! Uyga ketamiz!

Shunda... shunda, to'shakning yarmi bo'sh ekanini payqadi. O'g'lining ikkala oyog'i yo'q edi. Tizzadan emas, undan ham yuqoriroqdan. Ko'krigidan buyog'i doka bilan o'rab tashlangan. Har joy-har joyda qizg'ishtob dog'lar. Qotib qolgan qon dog'lari... [1. 65].

Inson zoti dunyoda nima uchun yashayotganini boshiga kulfat va g'amlar yog'ilgan paytda yanayam yaxshiroq anglaydi. O'z-o'ziga savol beradi: vijdoni; o'tmishi, buguni oldida so'roqlar paydo bo'ladi, o'zini taftish qiladi. Ayniqsa, bor boyligi, butun borlig'i bo'lgan farzandini o'lim to'shagida ko'rsa, uni shu ahvolga solganlar kimligini o'ylab ich-etini yesa hamki, dodini kimga aytsin?!

... Nega? – dedi ingrab. –Nega? Insoflaring bormi? Aytinglar, bolam nima gunoh qiluvdi? – Yerga muk tushdi-da, namiqqan taxta polni qo'shqo'llab ojiz mushtlay boshladi.

– Nega? Nega? Nega-a-a!!!” [1. 66]

Millionlab insonlar boshiga yetgan, bolalarni yetim, ko'plarni boquvchisiz va qarovsiz qoldirgan urush va uning sababchilariga berilishi kerak bu savol. Kim ham javob bera olardi?! G'afur Gulomning “Sog'inish” she'ridagi o'zbek otasi, nafaqat o'zbek, balki butun dunyo otalari tilidan aytilgan orzu-umidlar, o'y-xayollar urushga ketgan o'g'li firoqida yuzaga kelgan edi. Hamidulla ham nafaqat hijron, balki butun umrlik ayriliqqa, qiyomatga qolgan diydorga muhtalo bo'ldi. Ota shunday azob chekib tursa, o'g'lini afg'onga emas, Termizda yigitlik burchini o'tayapti, bugun-erta kelsa, to'ylar qilish orzusida shodon yurgan onaning ahvolini tasavvur qilishning o'zi bir fojia.

Muxtasar aytganda, Hamidulla – o‘zbek otasining ajib tasviri solingan portreti. Uning gap-so‘zlari, o‘y-fikrlari, tashqi ko‘rinishi, xatti-harakatlari milliy portretning yorqin ifodasidir.

“Xotam-xasisning xazinası”. Hikoyada milliy portret ko‘rinishlari aks etgan ayrim o‘rinlarni ko‘rib o‘tamiz.

“Yetti yoshlardagi bola tarvaqaylab o‘sgan daraxt tagida turibdi. Egnida pochasi uzun ishton, katak ko‘ylagining bir yengi yirtilgan. Boshida qatirmasi chiqib ketgan baxmal do‘ppi. Do‘ppi kichikroq kelib qolgan shekilli, boshining bir tomoniga qiyshayib turibdi. Oyoq yalang. U nima uchundir iljayadi. Nimaga kulayotganini o‘zi ham bilmasa kerak. Bu – men. To‘g‘rirog‘i, mening suratim... Qo‘shnimiz Adol xolaning keliniga beshik kelgan kuni tushganman... [1. 66].

Milliylikni ifodalovchi kiyim-kechaklardan biri baxmal do‘ppi o‘zbek bolasining o‘ziga xos milliy ko‘rinishini ochib beruvchi muhim vositadir. Xalqimizda beshik yoki sunnat to‘ylarda, albatta, o‘g‘il bolalarga sarpoy (“sar” – bosh, “poy” – oyoq, aslida “saru poy”) ya‘ni boshdan oyoqqa qadar yangi libos kiyintirish o‘ziga xos odatdir. Qiz bolalarga esa, doimo do‘ppi kiyish odatiy hol sanalgan. Kim bo‘lsa ham, jinsi va yoshidan qat‘iy nazar do‘ppi – hamisha qadrdon bosh kiyimi bo‘lib, nikoh yoki muchal to‘ylar, turli xildagi marakalar, hatto ta‘ziyalarda ham milliylik kasb etuvchi asosiy ashyodir.

Qo‘shnining keliniga emas, aslida kelinning bolasiga uning ota-onasi tomonidan beshik to‘y qilinib, beshik olib kelinishi, belanchak olib kelinganda ham marosimning “beshik to‘y” deya o‘zgarishsiz aytilishi yuzyilliklar silsilasida ahamiyatini yo‘qotmayotgan qadriyatligidan dalolatdir. Odatda, beshik to‘yi o‘g‘ilmi, qizmi, birinchi farzand (nevara) uchun keltiriladi.

Xotam-xasis tasviri esa quyidagicha: “Qiziq, negadir tovushi titrab chiqadi. Qadam bosishiyam g‘alati. Pakana odam qadamni katta tashlasa g‘alati ko‘rinadi. Xotam-xasis pakana. Tag‘in doim shimining pochasini qayirib yuradi. Chap pochasini to‘pig‘igacha, o‘ng pochasini tizzasigacha. Velosipedning zanjiri g‘ajib ketmasligi uchun ataylab qayirib olgan. Ayniqsa shu oyog‘i xunuk: qopdek pochaning ichidan chillakdek oyoq qiltirab ko‘rinadi [1. 67]. Xotam-xasis negadir

iljayadi. Qoshiqdekkina yuzidagi ajinlar qat-qat bo‘lib ketadi. Xuddi issiq suvda qaynatilgan olmadek. Aytishlaricha, u avval bunaqa iljaymas ekan. Urushdagi o‘g‘lidan qoraxat kelganidan keyin shunqa bo‘pqopti [1. 67].

Odil Yoqubovning “Yaxshilik” hikoyasidagi bolaning tog‘asidan kelgan qoraxat kelinoyisi-yu buvisining qalbini qanday larzaga solgan bo‘lsa, “Ikki eshik orasi”da oqsoqolning o‘gillari Zokir va Shokir, Robiyaning suygani, Husan duma va Qora ammaning o‘g‘li Kimsandan kelgan bu kabi sovuq xabar Xotam-xasisning ham yuragini shunday yaralagan, tani-yu ruhini birdek jarohatlagan.

“Qiziga beshik olib kelgan qudaxola boshiga ukpar qadalgan do‘ppi kiygizib nevarasini olib chiqadi. Hikoyada obrazlar yozuvchi asarlari orasida sanoqli bo‘lgan o‘zgacha, boshqalarga o‘xshamaydiganlaridan biri – shu Xotam-xasis. U bir qarashda sizda boshqacha taassurot qoldiradi. Asar rivojida esa personajga bergan bahongiz, fikrlaringiz o‘zgaradi. Dastlab u rosa qitmir, birovga narsasini ravo ko‘rmaydigan qurumsoqdek tuyiladi, ammo keyinchalik o‘g‘lining xotirasi sababidan uning suratlarini-da qizg‘anib, ich-ichdan ezilgan, dardlarini birovga bildirmaslikka harakat qilgan mard erkak timsolida gavdalanadi. Bu holatni uning obrazi va harakatlari berilgan yuqoridagi tasvirlardan sezamiz.

Xotam-xasis “... Mahalla choyxonasida bir o‘qituvchi amerikalik urushqoqlardan ijirg‘anib gapiribdi. Bitta bomba million turadi. Shuncha pulni tinchlik yo‘lida ishlatsa o‘ladimi desa, Xotam-xasis xo‘rsinib qo‘yibdi. “Qaniydi o‘shanaqa bombadan bittasi tomorqamga tushsa, ancha pulli bo‘pqolardim” [1.70]. Xotam-xasis kamdan kam uchraydigan, “Kecha va kunduz”dagi Razzoq so‘fi singari antiqa, “Mehrobdan chayon”dagi Solih maxdum kabi takrorlanmas OBRAZ. Uning o‘y-fikrlari, kulgiga moyil gap-so‘zlari o‘g‘li bilan bog‘liq hasratlarini sezdirmaslik, boshqalarni ham dardiga sherik qilmaslik uchundir balki. Atom bombasi tomorqasiga tushsa, nafaqat uyi, balki butun dunyoga xafv tug‘dirishini xayoliga ham keltirmaydi. Yuqoridagi kichik portretdan Xotam-xasisni yo juda sodda yoki o‘ta xasis va xudbin degan xulosaga kelish mumkin. Aslida tarixda Hotami Toy kabi nihoyatda saxiy, balki axiy shaxsga nisbat bersak,

bir nomdagi turli xarakter sohiblarini qarama-qarshi qo‘ya olamiz: Xotam-xasis – Hotami Toy.

“Xotam-xasisning yigirmasidan keyin imtihon topshirib kelsam, uyda Iqbol xola (Xotam-xasisning bevasi–izohlar bizdan) o‘tiribdi. Ko‘k ko‘ylakda, boshida qora ro‘mol, rangi bir holatda... [1.72].

Dunyo tarixida marosimlar bilan bog‘liq qadriyat, urf-odatlar ustkiyimlar, aksesuarlarda ham aks etadi. Xususan, turkiy xalqlarda motam marosimida qora, oq, ko‘k liboslarni kiyish me‘yor sanaladi. Ayniqsa, qora rang qadimdan – buyuklik, ulug‘vorlik ramzi bo‘lib, ko‘pgina turkiylar, shuningdek, deyarli butun olamda qayg‘uni yengish, bardosh timsoli sifatida shu rangdagi kiyim va qo‘shimcha vositalarga urg‘u beriladi. O‘zbeklarda ham bu qadriyat haliyam saqlanib qolgan.

Xotam aka suratkash edi. Uning sandig‘i ham bo‘lib, hech kimga tekkani qo‘ymagan. Hamma xazinasini shu yerdamikin degan o‘yda edi. Ammo sandiq ichi to‘la surat. Bari bolalarning surati, ichida hikoya qahramonining ham rasmi bor.... “Muncha ko‘p bu bolalar!!! Nimaga hammasi bolalarning surati! Boshiga yangi do‘ppi, egniga to‘ncha kiyib olgan manavi to‘ybola kim bo‘ldi? Bunisi-chi, yasatilgan toychoq oldida turgan bola-chi! Ie, manavi Ahmad-ku! Qo‘shnimizning o‘g‘li. Ko‘ylagining etagi lippasidan osilib qolibdi. Bular-chi? Biri yig‘lab, biri buvisining quchog‘ida yo‘rgakda yotgan chaqaloqlar kim bo‘ldi?”

Suratlar orasida bir katta kishini – Xotam-xasisning urushdan qaytmagan o‘g‘li Homidjonning surati ko‘rinadi. Negadir surat yangidek. Ostiga “Mehribon dadamga, mehribon onajonimga esdalik uchun – Homidjon. 1942-yil. Harbiy Ukraina fronti”. “Ajab, bu surat buncha ko‘p? Ie, bunisiyam shu surat-ku. O‘sha mo‘ylovi, o‘sha kulib turishi. Faqat egnida to‘n, boshida do‘ppi... Bunisi–portret.Tag‘in o‘sha suratning o‘zi. Ammo katta, patnisdek keladi. Galstuk taqib, zamonaviy kostyum kiyib olibdi... Undan chiqdi Homid aka... yo‘g‘-e, urushdan qaytsa eshitmasmidik?... Xayolimga da‘fatan urilgan fikrdan yuragim sirqirab

ketdi. Bundan chiqdi, Xotam amaki har yili o'g'lining suratini qayta ishlagan. Kattaroq qilib, zamonaviy qilib... [1.73].

“Iqbol xola ayvon raxida oyog'ini osiltirib o'tirar, tizzasida Homid akaning xuddi o'sha tankchilar shlemini kiyib tushgan suratini ushlagancha iltijo qilardi.

– Voy bolam-ey! Otasini dog'da qoldirib ketgan bolam... Bittagina nevaraga intizor qilib ketgan bole-em!”

“Umr savdosi”. Hikoyada milliy portretga xos tasvirlar deyarli uchramasa-da, milliy urf-odat hamda an'analar, o'zbeklarning oila qurish, to'y-hasham borasidagi udumlariga oid birliklar mavjud. Bu ham milliy koloritning bir ko'rinishidir. Chunonchi, hikoya to'y tayyorgarligini ko'rayotgan oila va ular bilan bog'liq voqealardan boshlanib, xotiralar bilan davom etadi. To'lqinjon bo'lajak kuyov. Xurshida opasi aldangan, hayotning achachiq-chuchugini totgan ayol. Onasi Xurshidaning adashgani uchun endi o'g'li To'lqinjon borasida “qatiqni ham puflab ichish”ga tayyor. Aytishicha, bo'lajak kelinning akasi icharkan, otasining og'zi shaloqmish... Axir – bu umr savdosi. Ammo Xurshida onasini shashtidan tushirishga sabab topdi, o'zining turmushida ham kamchiliklar borligini eslatdi. Chunki u ham Anvar ismli xotinboz erkakka aldanib, u yolg'onchining uchinchi xotiniga aylanib qoldi, buni kech bildi. Ammo so'nggi pushaymon – o'zingga dushman, deydilar. Bu – umr savdosi. Unda halol ham harom savdolar bo'lib turadi. Binobarin, oila qurish oldidan yigit va qiz tomon surishtirilishi, yetti pushti so'ralishi, “palagi toza” ekanligiga ishonch hosil qilinishi xalqimizning qadim an'analari, urf-odatlarining eng saralaridandir.

“Quyosh tarozisi” hikoyasi qahramonlari Murodjon, onasi, ayoli Nasiba, Murodjonning hamkasb do'sti Islom aka, Murod Vohidovich – shifokor. Nasibaning otasi – advokat, to'rt o'g'il orasida o'sgan erka qiz oliy o'quv yurtining 4-bosqichdalgida to'satdan o'pkasini shamollatib qo'yadi va uni Murodjon davolaydi. Shundan so'ng bir qancha vaqt o'tib ular munosabati jiddiylashadi va to'y bilan nihoyalanadi. Binobarin, o'zbek urf-odatlariga ko'ra, yigit va qiz munosabati chiroyli yakuni albatta, to'y bo'lishi kerak. Otasidan erta

yetim qolgan Murodjon onasi, singlisi va ukasi ta'minoti uchun ham mas'ul o'rtahol oila farzandi edi. To'y kelin tomon talabiga mos dabdaba bilan o'tdi. Ammo Nasiba nazdida Murodjon o'zgarib qolgandek tuyiladi. Qaynonasi Nasibaga erkak kishi tirikchilik tashvishida yuradi deya, nasihat qiladi. Nasiba eridan shubhalanib, Murodjonning ishxonasiga boradi. Erining hamkasbi, navbatchi shifokor Islom aka Nasibani eri navbatchilikda emasligini, kecha ham ishda bo'lmaganini aytadi va Nasibani Murodjonni yoniga etishni aytib yo'lga tushishadi. Nasiba Murodjonni xiyonat qilayotgandir, degan jirkanch xayollar bilan band bo'lib, manzilga yetishadi. Cho'lga qiyos bir joy, chang to'zon. Murodjon shifoxona ishidan tashqari bo'sh vaqtlarida va hatto tuni bilan loy kechib, terga botib mehnat qilar edi. Nasiba yomon xayollarga borganligidan juda afsuslanadi. Nasibaning orzu-havaslari, dabdabali to'yga sarflangan xarajatlar Murodjonni shu ko'yga solgan edi. Nasiba vijdoni qiynalib ketadi. U endi umr yo'ldoshi bebaho insonligini, ro'zg'or yukining qanchalik og'irligi, o'zining turmushga bo'lgan yengil qarashini anglab yetgandek bo'ladi.

“Doim xalatda yurgani uchunmi Nasiba e'tibor bermagan ekan. Bu gal yarashiqli kiyinib olgan, sochlarini silliq taragan, galstuk taqqan Murodjon uning ko'ziga cho'g'dek ko'rindi [2.6].

Yigit va qizning to'yoldi uchrashuvida doim kasbi taqozosi bilan oq xalat kiyib yurgan Murodjon Nasiba ko'ziga yanada chiroyli ko'ringani kelin-kuyovlik, yangi nikoh ostonasidagi ikki yoshning nafaqat tashqi ko'rinishi, kiyimlari, yuz-ko'zlari, hayajon va sevinchga to'la qalb kechinmalarining qarashlar, nikohlardagi ifodasi ham sezilib turardi.

Nasibaning kelinlik husni ta'riflanar ekan, “oynadan qiyg'och qoshlari chimirilgan, surma tortilgan ko'zlarida ehtiros yashiringan tiniq chehrali qiz qarab turardi... Qavib tikilgan neylon xalatini yechib, atlas ko'ylak kiydi [2.10].

Kelinchaklik – bo'y (bo'yi yetgan, ulg'aygan) qizlarning orzusi. Oq libos –poklik, bokiralik ramzi. Bu butun dunyo kelinlari uchun umumiy libos. Ammo o'zimizdagi milliy matolar faqat o'zimizga tegishli. To'ydan keyin Nasibaning kelinchak obrazida ko'rinishi ta'riflarida ham atlas ko'ylakka urg'u beriladi. Zero,

o'zbeklarda milliylikni kiyim-kechakka nisbat berganda atlas, adrasni eslay boshlaymiz. Bunda mato ham, ko'ylak ham, shu libosni kiygan kelin ham o'zbekniki. Boshqa xalqda bo'lganda atlasni kofta va shortik qilib kiygan bo'lardi, balki. Binobarin, hindlardagi sari, yaponlardagi kimano juda ulug'lanadi, milliy mato, brend sifatida qadrlanadi. Shunga ko'ra, atlas hamda adras ham dunyoga bizning o'zbekligimizni bildirib turadigan o'ziga xos brendimizdir.

“Oq bulut, oppoq bulut” hikoyasi syujeti haqida adibning o'zi “Ikki eshik orasi” romani voqealariga o'xshab ketishi, ammo “yechim” boshqachaligini ta'kidlaydi. Hikoya ancha oldin 1978-yilda yozilgan bo'lib, “Ikki eshik orasi” romanining bir syujeti uchun g'oyaviy xamirturush bo'lgan, ehtimol. Ammo yechimlar o'zga, o'zgacha. Zero, yozuvchi o'zini-o'zi takrorlashga haqqi yo'q, deydi adib O'tkir Hoshimov.

Hikoya boshida bir vaqtlar bir- biriga ko'ngil qo'yib, so'ng ayrilib ketgan ikki yosh: Dilafro'z va Ergash o'n sakkiz yil o'tib tasodifan uchrashib qolishadi. Yoshliklarini eslashadi. O'shanda ular o'ninchi sinfdaligida Dilafro'z boshqa maktabdan kelib Ergashlarning sinfida o'qishini davom ettiradi. Ergash Dilafro'zni ko'rgan ilk kunda ham, o'n sakkiz yildan so'ng ham oppoq ko'ylakda edi. Hatto o'sha paytga qadar ko'rgan tushlarida ham oppoq libosda, oppoq bulutlar orasida suzayotgandek tasavvur etardi.: “Sochlari chiroyli turmaklangan, oppoq ko'ylakda, ko'zlarida tabassum... Butun maktabda eng chiroyli qiz shu – Dilafro'z edi” [2.20] deydi Ergash xayolan. “Ikki eshik orasi”da Muzaffar, Munavvar, Sherzodning sevgi uchburchagidagi kabi bu asarda ham Dilafro'z, Ergash Abjalning muhabbat borasidagi qarama-qarshiliklarida o'xshashliklar talay, ammo yechim o'zgacha. Har ikki sevgi mojarosida Bo'rijarga kalla tashlash motivi mavjud, lekin tanlov boshqa.

“Jintepa” tinib-tinchimas va qiziquvchan bolalar haqidagi yana bir ajoyib hikoya. Boshqa hikoyalardan farqli tarzda biroz fantastik yondashuv mavjud bo'lib, bolalarcha soddalik va beg'uborlik sezilib turadi. Rustam va Adham ismli sinfdosh do'stlar ravochga tosh bostirish bahonasida Jintepa to'g'risidagi mish-

mishlarning qay darajada haqiqat ekanligini aniqlash uchun jin-u ajinalar bor, deya gumon qilingan tog' yonbag'riga chiqishadi. Kun kech bo'lib qolib yomg'ir va momaqalldiroq, chaqmoq ta'sirida bir-birlarining boshlarida yorug'lik, so'ng olovni ko'rib yonyapmiz, deya gumon qilishib qo'rqib ortlariga qochishadi. Buni o'rtoqlariga aytganlarida fizika o'qituvchisi Ismoil aka bu ham bir tabiat hodisasi ekanligini va momaqalldiroq paytida zaryadlar teparoqda turgan Rustam va Adhamning sochlariga urilib yorug'lik chiqarganini ta'kidlaydi.

“Birinchi dars biologiyadan edi. Odamning maymundan tarqalganini jon kuydirib tushuntiradigan, o'zining ham allaqayeri maymunga o'xshab ketadigan, qanshari past, burun kataklari keng o'qituvchimiz bo'lardi” [1.126]. Darwin nazariyasiga tayanuvchi ushbu ilmiy farazlar olam yaralishi qonuniyatlaridagi Qur'onda yozilganlardan ham aniqroq isbot keltira oladimi? Axir VI asrdayoq Alloh Taolo insonning yer bag'ridan, tuproqdan, loydan yaratganligi muqaddas kitoblarda bayon qilinganda “o'zining ham allaqayeri maymunga o'xshab ketadigan “ustoz”ga ajoyib o'xshatishni topgan yozuvchi mahorati, diniy va dunyoviy bilimi yetarli ekanidan darak berib turibdi.

XULOSA

O'tkir Hoshimov ijodida milliy o'ziga xoslikning portretidagi ifodasi janrlar silsilasida turlicha taqsimlangan. Xususan, hikoyalarda milliy portretning ahamiyati kichik nasriy asar bo'lsa-da, nisbatan mo'lroq hajmga ega. Qissalarda turlicha: ayrimlarida hikoyadagicha yoki undan ham kam, romanlarda esa ayrim o'rinlarda juda oz hajmni egallaydi. Adibning “Urushning so'nggi qurboni”, “O'zbeklar”, “O'zbek ishi”, “Yanga”, “Hurkitilgan tush” kabi hikoyalarida milliy portret ko'rinishlari asar hajmining salmoqli qismini tashkil etadi. Yuqorida tahlili amalga oshirilgan hikoyalarda esa milliy portret tasvirlaridan ko'ra milliy koloritning boshqa ko'rinishlari ko'proq kuzatiladi. Xususan, milliy urf-odatlar, oilaviy munosabatlar, qadriyatlar borasida portretga sig'dirib bo'lmaydigan jihatlar ko'zga tashlanadi. Demak, yozuvchi hikoyalarida milliylik turli ko'rinish va yo'sinda ifoda etilgani bilan xarakterlanadi. Binobarin, hikoyaning o'zbeklar hayoti, turish-turmushidan olinganligi ilk satrlardanoq seziladi, qay usul va ifoda

tarzida bo'lsa ham, kitobxon qahramonning ayni o'zbek farzandi: ayoli yoki erkagi, yosh-u qarisi ekanini darrov payqaydi. Ayni shu sabab muallif mahorati mahsuli bo'lgan asarlar o'quvchi qalbining tashxischisi va chin mahrami bo'la oladi.

ADABIYOTLAR:

1. O'zbeklar: Hikoyalar, o'ylar, hajviyalar/ O'tkir Hoshimov. – T.:G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018. – 286 b.
2. Hurkitilgan tush. [Matn]:hikoyalar/ O'. Hoshimov. – T.: “Ziyo nashr”, 2019. – 160 b.
- 3.Hikoyada so'nggi jumlaning poetik vazifasi/R.Hamrayev// Til va adabiyot ta'limi. – 2020. – N6. – B. 24-25.
4. Hozirgi hikoyalarda ayol ruhiyati talqini/G.S attorova. – T.:O'zbek tili va adabiyoti, 2020-yil, 6-son. – 46-51-bet.
5. Hikoyada qahramon ruhiyati tasviri/B. Shukurova. – T.:O'zbek tili va adabiyoti, 2020-yil, 6-son. – 80-84-bet.
6. Hikoyada tarixiy shaxslar talqini/ Z.Amirqulova. – T.:Bobur va dunyo, 2021-yil dekabr, 4(21)son. – 59-63-bet.